XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 21-iyun VI-86-109-8-0-K/24 Surxondaryo viloyati

Viloyatda qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga ko‘rsatiladigan xizmatlarni ommaviy oferta shartnomasi asosida amalga oshirish to‘g‘risida

Aholining maishiy chiqindilar bilan bog‘liq xizmatlar sifatidan to‘liq qoniqishini ta’minlash va tadbirkorlar uchun jozibadorligini ta’minlash, hosil bo‘layotgan chiqindilarni qayta ishlash darajasini oshirish, chiqindilar to‘planishining oldini olish, atrof-muhitga yetkazilayotgan salbiy ta’sirni kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida, deputatlar tomonidan bildirilgan fikr-mulohaza va takliflarni inobatga olib, xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashi **qaror qiladi:**

1. Viloyat Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasining 2024-yil 14-maydagi 01-05/3266-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Surxondaryo viloyatida yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun ularning faoliyat turlari va xususiyatlaridan kelib chiqib, chiqindi to‘plash me’yorlarini hamda ommaviy oferta bo‘yicha **bir birlik uchun** maishiy chiqindilarni olib chiqib ketganlik uchun **bir oylik to‘lov** summalari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Chiqindilar to‘g‘risida”gi qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-yanvardagi “Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta’sirini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-5-son farmonining 8-bandiga muvofiq, 2024-yil 1-iyuldan boshlab viloyatda qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga ko‘rsatiladigan xizmatlarni qonunlarda belgilangan tartibda ommaviy oferta shartnomasi asosida amalga oshirish yo‘lga qo‘yilsin.

4. Viloyatdagi barcha sanitar tozalash korxonalari mazkur qaror talabidan kelib chiqib, yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga ko‘rsatiladigan xizmatlarni qonunlarda belgilangan tartibda ommaviy oferta shartnomasi asosida amalga oshirib borsin.

5. Sanitar tozalash ishlarini tashkil etish markazi Surxondaryo viloyati hududiy filiali (R.Ahmedov) yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga ko‘rsatiladigan xizmatlarni ommaviy oferta shartnomasi asosida amalga oshirib borilishini nazorat qilib borsin.

6. Yuqorida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan tegishli mansabdor shaxslar tomonidan **qayd etilgan muddatlarda va har chorak yakunida** xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashiga yozma hisobot kiritib borilsin.

7. Viloyat Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (Z.To‘rayev), viloyat teleradiokompaniyasi (B.Mingboyev), “Surxon tongi” va “Заря Сурхана” gazetalari birlashgan tahririyati (S.Norqobilov)ga ommaviy axborot vositalari orqali sohada amalga oshirilayotgan ishlarni keng yoritib borish tavsiya etilsin.

8. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (D.Djurayeva) zimmasiga yuklansin.

9.Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Sessiya raisi CHORIYEV ABDURAIM RAVSHANOVICH

Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining
2024-yil 21-iyundagi
VI-86-109-8-0-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Surxondaryo viloyatida yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun ularning faoliyat turlari va xususiyatlaridan kelib chiqib, chiqindi to‘plash me’yorlarini hamda ommaviy oferta bo‘yicha bir birlik uchun maishiy chiqindilarni olib chiqib ketganlik uchun bir oylik to‘lov summalari

T/r	Qattiq maishiy chiqindi hosil bo‘ladigan obyektlar	Hisob birlik	Bir hisob birlik uchun bir kunda hosil bo‘ladigan maishiy chiqindi miqdori, gram[1]	1 m^3 chiqindini olib chiqib ketganlik uchun to‘lov, so‘m	Maishiy chiqindining xajmga nisbatan og‘irligi, kg/m^3	1 kg maishiy chiqindini olib chiqib ketganlik uchun to‘lov, so‘m	Bir hisob birlik uchun chiqindilarni olib chiqib ketganlik uchun bir oylik to‘lov summasi, so‘m
A	B	V	G	D	Y	J=D/Y	Z=G/1000*30*J
1	Ma’muriy va boshqa davlat muassasalari (tashkilotlar, ofislar, idoralar, banklar va b.)	1 ta xodim	220	78 400	445	176,2	1 162,9
2	Mehmonxona, umumiy yotoqxona, dala hovli va b.	1 ta o‘rin	212,5				1 123,3
3	Maktabgacha ta’lim muassasalari (bolalar bog‘chasi, yasli va b.)	1 ta o‘rin	102				539,2
4	Maktab, kollej, oliy ta’lim va boshqa o‘quv muassasalari	1 ta o‘quvchi, talaba	67,7				357,9
5	Poliklinika	1 ta tashrif buyuruvchi	82,5				436,1
6	Shifoxona, sanatoriy, pansionat, davolash-profiliktika muassasalari va b.	1 ta koyka-o‘rin	583				3 081,7
7	Bozorlar, supermarketlar, gipermarketlar, oziq-ovqat do‘konlari, yarmarkalar, xo‘jalik tovarlari do‘konlari, savdo pavilionlari, kiosklar, savdo chodirlari va b.	1 m^2 savdo maydoni uchun	62,5				330,4
8	Vokzallar, avtovokzallar, aeroportlar va b.	umumiy maydonning 1 m^2 qismida	33,25				175,8

9	Umumiy avtoturargohlar, avtoyuvish joylari, yonilg‘i quyish shaxobchalari, shaxsiy avtoturargohlar va b.	1 ta avto o‘rin	1345				7 109,7

Havolalar:

[1] Surxondaryo viloyati hokimining 2020-yil 29-fevraldagi Q-80-sonli qarori

[2] Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining 2024-yil 19-apreldagi VI-84-72-8-0-Q/24-sonli qarori

[3] “O‘zbekiston Respublikasi sharoitida aholi punktlari hududini qattiq maishiy chiqindilardan tozalashning sanitariya qoidalari va me’yorlari” SanPin №-0297-11, 10-str.